



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

O‘ZBEK TILIDA “YOSHLIK” KONSEPTI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARDA IFODALANGAN MADANIY QADRIYATLAR

Mamatmurodova Sohiba Muhammad qizi

Termiz davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tili tilshunosligi va lingvokultologiyasida “yoshlik” konseptining tutgan o‘rni hamda uning asosida shakllangan frazeologik birliklar tadqiq etilgan. Ishda yoshlik tushunchasining nafaqat jismoniy yosh, balki kuch-shijoat, ilm egallash, axloqiy shakllanish hamda ijtimoiy mas’uliyat kabi milliy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi barqaror birikmalar tahlili orqali ochib berilgan. Shuningdek, iboralarda aks etgan yoshlarga xos g‘o‘rlik va tajribasizlik holatlarining tarbiyaviy aspektlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘zbek xalqining yosh avlod tarbiyasiga oid asriy hayotiy falsafasini va milliy mentalitet xususiyatlarini tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: konsept, yoshlik, frazeologik birlik, lingvokultologiya, madaniy qadriyat, o‘zbek mentaliteti, g‘o‘rlik, shijoat.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА, ОСНОВАННЫЕ НА КОНЦЕПТЕ «МОЛОДОСТЬ», И ОТРАЖЁННЫЕ В НИХ КУЛЬТУРНЫЕ ЦЕННОСТИ

Маматмуродова Сохиба Мухаммад кизи

Термезский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье исследуется роль концепта «молодость» в узбекском языкознании и лингвокультурологии, а также фразеологические единицы, сформированные на его основе. Посредством анализа устойчивых выражений раскрывается связь понятия молодости не только с физическим возрастом, но и с такими национально-культурными ценностями, как сила и энергия, стремление к знаниям, моральное становление и социальная ответственность. Кроме того, освещаются воспитательные аспекты отраженных в идиомах качеств, свойственных молодежи, таких как незрелость и неопытность. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию многовековой жизненной философии узбекского народа в отношении воспитания подрастающего поколения и особенностей национального менталитета.

Ключевые слова: концепт, молодость, фразеологическая единица, лингвокультурология, культурная ценность, узбекский менталитет, незрелость, мужество.

PHRASEOLOGICAL UNITS BASED ON THE CONCEPT OF “YOUTH” IN THE UZBEK LANGUAGE AND THE CULTURAL VALUES REFLECTED IN THEM

Mamatmurodova Sohiba Muhammad qizi

Termez State University, Doctoral Researcher

Abstract

This article examines the role of the concept of "youth" in Uzbek linguistics and linguaculturology, as well as phraseological units formed on its basis. Through the analysis of idioms, the study reveals that the concept of youth is intertwined not only with physical age but also with national-cultural values such as strength, pursuit of knowledge, moral development, and social responsibility. Additionally, the educational aspects of youth-related traits like immaturity and lack of experience, as reflected in idioms, are highlighted. The findings of the research contribute to a deeper understanding of the Uzbek people's centuries-old philosophy regarding the upbringing of the younger generation and the distinctive features of the national mentality.

Keywords: concept, youth, phraseological unit, linguaculturology, cultural value, Uzbek mentality, immaturity, courage.

Frazeologik birliklar muayyan xalqning ko‘p asrlik turmush tajribasi, milliy tafakkuri, urf-odatlar va ma‘naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan til birliklari hisoblanadi. Ular xalqning olamni idrok etish usuli, voqelikni baholash mezonlari hamda ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini obrazli va ta’sirchan shaklda ifodalashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois frazeologizmlar nafaqat tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini namoyon etadi, balki xalqning madaniy xotirasi va milliy o‘zligini

aks ettiruvchi muhim manba sifatida ham e'tirof etiladi. O'zbek tili frazeologik tizimida inson hayoti bilan bog'liq tushunchalar, xususan, "yoshlik" konsepti alohida o'rin egallaydi. Chunki yoshlik inson umrining eng serg'ayrat, jo'shqin va imkoniyatlarga boy davri sifatida qadrlanadi. Ushbu davr shaxsning jismoniy va ruhiy jihatdan shakllanishi, hayotiy maqsad va intilishlarining belgilanishi, ijtimoiy munosabatlarga faol kirib borishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ham o'zbek xalqining tilida yoshlik bilan bog'liq ko'plab frazeologik birliklar yuzaga kelgan bo'lib, ular orqali mazkur davrning turli jihatlarini o'z ifodasini topgan.

Yoshlik konsepti faqat insonning ma'lum yosh chegarasini anglatib qolmaydi. U kuch-quvvat, shijoat, orzu-umid, tashabbuskorlik va yangilikka intilish kabi ijobiy xususiyatlar bilan bir qatorda, tajribasizlik, hissiyotlarga beriluvchanlik hamda hayotiy sinovlar orqali kamol topish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shu ma'noda, frazeologik birliklarda yoshlik davriga nisbatan xalqning bahosi, tarbiyaviy qarashlari va hayot falsafasi o'z aksini topadi. Ayrim iboralarda yoshlarning serharakatligi va g'ayrati ulug'lansa, boshqalarida ularga xos bo'lgan shoshqaloqlik yoki hayotiy tajribaning yetishmasligi obrazli tarzda tasvirlanadi. Demak, o'zbek tilidagi yoshlik konseptini ifodalovchi frazeologizmlar nafaqat tilning obrazlilik imkoniyatlarini boyitadi, balki xalqning yosh avlodga bo'lgan munosabati, tarbiyaviy qarashlari hamda ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'rganishda ham muhim manba vazifasini bajaradi. Ularni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish o'zbek xalqining milliy tafakkurida yoshlikning qanday konseptual mazmun kasb etishini, ushbu davrga xos fazilat va xususiyatlarning til vositasida qay tarzda namoyon bo'lishini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi yoshlik bilan bog'liq frazeologik birliklarning ma'no turlari va ularning zamirida yotgan milliy-madaniy qadriyatlar tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek tilshunosligida frazeologiya asosan Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov kabi olimlar tomonidan o'rganilib, "Izohli frazeologik lug'at" [1] kabi lug'atlar yaratilgan. So'nggi yillarda esa "yoshlik", "oila", "oq-qora rang" kabi konseptlar bo'yicha lingvokulturologik tadqiqotlar ko'paymoqda. Ingliz tadqiqotchisi Raymond V. Gibbsning ta'kidlashicha, insonlar kundalik turmush tarzida bir-biri bilan kamdan-kam hollarda badiiy tilda suhbat quradi va ushbu holatda fikrni, ayniqsa, mavhum g'oyalarni ifoda etishda turli ibora va maqollar yordamga keladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot o'zbek tili tilshunosligida "yoshlik" konseptining lisoniy va lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, uning asosida shakllangan frazeologik birliklarning semantik hamda madaniy-ma'rifiy jihatlarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotning materiallar bazasini shakllantirish uchun o'zbek tili frazeologik, izohli va o'quv lug'atlari, shuningdek, o'zbek xalq maqollari hamda badiiy adabiyot namunalari foydalanildi. Dastlabki bosqichda "yoshlik", "yosh", "yigitlik", "g'o'rlik" kabi tayanch semantik komponentlarga ega bo'lgan va inson umrining yoshlik davrini, uning ruhiy, jismoniy, ijtimoiy holatini ifodalovchi barqaror birikmalar kontinuumi (tanlanmasi) ajratib olindi. Tadqiqot jarayonida tilshunoslikning zamonaviy antropotsentrik paradigmasiga asoslangan deskriptiv metod, konseptual tahlil metodi, lingvokulturologik tahlil, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbek xalqining yoshlik haqidagi tasavvurlarida ushbu davr, avvalo, jismoniy baquvvatlik va ruhiy tetiklik bilan bog'lanadi. Xalq qarashlariga ko'ra, yosh inson oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'lida qat'iyat ko'rsatishga, mehnatdan cho'chimaslikka va turli sinovlarni yengib o'tishga qodir bo'ladi. Shu sababli ham o'zbek tilidagi ko'plab frazeologik birliklarda yoshlik kuch-g'ayrat, shijoat va harakatchanlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bunday iboralar nafaqat yosh avlodning jismoniy imkoniyatlarini, balki ularning ichki energiyasi, hayotga faol munosabati va tashabbuskorlik xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi. Shu tariqa, frazeologik birliklar vositasida o'zbek xalqining yoshlik davriga oid qadriyatlari, tarbiyaviy qarashlari va ideal shaxs haqidagi tasavvurlari namoyon bo'ladi.

Masalan, "toshni talqon qilmoq" frazeologizmi yoshlik davriga xos bo'lgan cheksiz kuch-quvvat va matonatni ifodalaydi. Ushbu ibora orqali yoshlarning eng murakkab va mashaqqatli vazifalarni ham muvaffaqiyatli bajara olishi haqidagi xalqona tasavvur aks etadi. Toshning mustahkamligi va qattiqligi bilan bog'liq obrazning tanlanishi yosh insonning iroda kuchi, chidamliligi va mehnatsevarligini ta'kidlashga xizmat qiladi. Mazkur frazeologizm o'zbek xalqining yosh avloddan katta umid kutishi, ularni faol, sabotli va mas'uliyatli insonlar sifatida ko'rishga intilishini ham ifodalaydi. Shu jihatdan, ushbu ibora yoshlik konseptining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan jismoniy va ma'naviy qudratni lingvokulturologik nuqtayi nazardan yoritib beradi.

Shuningdek, "yuragida o'ti bor" iborasi ham yoshlik konseptining muhim jihatlaridan birini yoritadi. Mazkur frazeologizm insonning ichki shijoati, tashabbuskorligi, orzu-intilishlari va faol hayotiy pozitsiyasini ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek madaniyatida yoshlarning befarq, sustkash yoki loqayd bo'lishi ma'qullanmaydi. Aksincha, ulardan serg'ayrat, izlanuvchan, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi shaxs bo'lish talab etiladi. Shu bois "yuragida o'ti bor" iborasi yosh insonning maqsad sari intiluvchi, o'z oldiga qo'ygan vazifalarni amalga oshirishga tayyor va irodali ekanini bildiruvchi ijobiy baho sifatida

qo'llanadi.

Yoshlikning emotsional jihatlarini aks ettiruvchi frazeologizmlardan yana biri “qoni qaynoq” iborasidir. Ushbu birlik orqali yoshlarga xos bo'lgan jo'shqinlik, hissiyotlarga boylik, tezkor munosabat bildirish va hayotga katta qiziqish bilan qarash kabi xususiyatlar ifodalanadi. Biroq bu ibora faqat salbiy ma'noda shoshqaloqlikni emas, balki energiyaga to'la bo'lish, tashabbus ko'rsatish va faol harakat qilish holatini ham anglatadi. O'zbek xalqining tasavvurida “qoni qaynoq” yoshlar jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Ularning jo'shqinligi to'g'ri yo'naltirilgan taqdirda katta yutuq va muvaffaqiyatlarga zamin yaratishi mumkinligi alohida e'tirof etiladi.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi va tarbiyaviy qarashlarida yoshlik davri ilm olish, hunar egallash hamda shaxsiy kamolot sari intilish uchun eng qulay va mas'uliyatli bosqich sifatida talqin etiladi. Xalq donishmandligiga ko'ra, aynan yoshlik yillari insonning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, tafakkurining faol rivojlanishi va yangi ma'lumotlarni tez hamda mustahkam o'zlashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Shu sababli ham yosh avlodni ilm-ma'rifatga yo'naltirish, ularni kasb-hunar egallashga undash o'zbek tarbiya tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Bu g'oya xalq og'zaki ijodi namunalarda, xususan, maqol va iboralarda o'zining yorqin ifodasini topgan.

Xalq orasida keng tarqalgan “Yoshlikda berilgan ilm – toshga o'yilgan naqsh kabidir” degan hikmat ham ayni shu qarashning mahsulidir. Mazkur ibora yoshlik davrida olingan bilimning mustahkamligi va uzoq muddat saqlanib qolishini obrazli tarzda ifodalaydi. Toshga o'yilgan naqshning o'chmasligi va bardavomligi ilmning yoshligida egallangan shakli bilan qiyoslanadi. Aksincha, keksalik chog'ida o'rganilgan bilim ko'pincha “muz ustiga yozilgan yozuv”ga o'xshatiladi. Ushbu qarama-qarshi tasvir orqali xalq yoshlik davrining bebaho imkoniyat ekanini, uni bekorchi mashg'ulotlar bilan emas, balki ilm olish, mahoratni oshirish va hayotiy tajriba to'plash bilan o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. Demak, mazkur maqol o'zbek xalqining yosh avlod tarbiyasiga doir qarashlari, ilm-fanga bo'lgan hurmati hamda kelajak avlodni ma'rifatli etib tarbiyalashga qaratilgan intilishlarini aks ettiradi.

Biroq o'zbek tilidagi frazeologik birliklar va xalqona hikmatlarda yoshlik faqat ijobiy fazilatlar manbai sifatida emas, balki ehtiyotkorlikni talab qiladigan murakkab davr sifatida ham tasvirlanadi. Chunki bu davr inson hayotida tajribaning yetarli darajada shakllanmaganligi, hissiyotlarning ustunligi va voqea-hodisalarga ko'pincha shoshqaloqlik bilan yondashish holatlari bilan ham tavsiflanadi. Shu bois xalq tafakkurida yoshlik tushunchasi ko'pincha “g'o'rlik” konsepti bilan yonma-yon qo'llanadi.

O'zbek tilida uchraydigan “yoshlik qilib qo'ymoq”, “g'o'rlik qilmoq”, “yosh boshiga ish tushmoq” [1] kabi iboralar yosh avlodga xos bo'lgan ayrim xatti-harakatlarni baholashda ishlatiladi. Bunday birliklarda yoshlarning hayotiy tajriba yetishmasligi sababli ayrim masalalarda xatoga yo'l qo'yishi tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga, ushbu iboralar tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, yoshlarni o'ylab ish tutishga, kattalarning tajribasidan foydalanishga va o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his etishga undaydi.

Shunday qilib, o'zbek xalqining til manzarasida yoshlik konsepti ikki tomonlama xususiyat kasb etadi. Bir tomondan, u kuch-g'ayrat, ilm olishga chanqoqlik, orzu-intilish va ulkan imkoniyatlar davri sifatida baholanadi. Ikkinchi tomondan esa, bu davr g'o'rlik, hissiyotlarga beriluvchanlik va hayotiy tajribaning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Frazeologik birliklar hamda maqollarda aks etgan mazkur qarashlar o'zbek xalqining yosh avlodni tarbiyalash borasidagi asriy tajribasi, axloqiy me'yorlari va milliy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan, yoshlik konseptini ifodalovchi til birliklarini lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish xalqning dunyoqarashi va madaniy xotirasini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birlik	Ifodalagan ma'nosi	Tarbiyaviy va madaniy qadriyati
“Og'zi poliz” / “G'o'r”	Tajribasizlik, gapning orqa-oldini o'ylamay gapirish.	Yoshlarni mulohazakorlikka va kattalardan o'rganishga chaqirish.
“Suti og'zidan ketmagan”	Hali juda yosh, hayot achchiq-chuchugini ko'rmagan.	Hayotiy tajriba va vaqt qadrini anglatish, mas'uliyatni eslatish.
“Burni ko'tarilgan”	Yoshlikka xos manmanlik, takabburlik.	Kamtarlik qadriyatini ulug'lash, yoshlarni kibrdan qaytarish.

O'zbek xalqining milliy dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlar tizimida yoshlik konsepti alohida

o‘rin tutadi. Biroq ushbu konsept individualistik mazmunda emas, balki oilaviy va jamoaviy munosabatlar doirasida talqin etiladi. O‘zbek mentalitetida yosh avlodning kamoloti, hayotda o‘z o‘rnini topishi va jamiyatdagi muvaffaqiyati ko‘pincha kattalarga bo‘lgan hurmat, ota-onaga sadoqat hamda keksalarning hayotiy tajribasidan bahramand bo‘lish bilan bog‘liq holda tushuniladi. Shu sababli o‘zbek tilidagi ko‘plab frazeologik birliklarda yoshlik obrazi keksalar obrazi bilan uzviy aloqada namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalqining an’anaviy qarashlariga ko‘ra, yoshlar nafaqat jismoniy va aqliy jihatdan kamol topishi, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham yetuk shaxs bo‘lib shakllanishi lozim. Bunday yetuklik esa kattalarning nasihati, tajribasi va duosini olish orqali yuzaga keladi, deb hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlar zimmasiga ota-ona roziligini qozonish, ustozlarga hurmat ko‘rsatish, keksalarning maslahatlariga quloq tutish kabi mas’uliyatlar yuklatiladi. Mazkur qarashlar o‘zbek xalqining avlodlararo vorislikka asoslangan tarbiyaviy tamoyillarini aks ettiradi. Bu borada “duosini olmoq” frazeologizmi alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur ibora ota-ona, ustoz yoki yoshi ulug‘ insonlarning ezgu tilaklari va roziligiga sazovor bo‘lish ma’nosini anglatadi. O‘zbek madaniyatida kattalarning duosi inson hayotidagi muvaffaqiyat, xotirjamlik va baraka manbai sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, yoshlar hayotining muhim bosqichlarida – ta’lim olish, ish boshlash, oila qurish yoki uzoq safarga chiqish arafasida keksalarning duosini olish zarur deb qoraladi. Bu holat yosh avlodning ma’naviy jihatdan kattalarga tayanishi va ularning qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishini ifodalaydi.

Mazkur frazeologizmida mujassam bo‘lgan madaniy mazmun shundan dalolat beradiki, o‘zbek xalqining tasavvurida yoshlikning kuch-g‘ayrati va intilishlari qanchalik yuksak bo‘lmasin, u ma’naviy tayanchsiz to‘laqonli kamolotga erisha olmaydi. Ya’ni jismoniy qudrat va bilim bilan bir qatorda, kattalarning roziligi ham yoshlar hayotining muhim omillaridan biri sifatida baholanadi. Shu jihatdan, “duosini olmoq” iborasi nafaqat diniy yoki marosimiy mazmunga ega, balki o‘zbek xalqining axloqiy qadriyatlari, oilaviy munosabatlari va avlodlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ushbu frazeologizm yoshlarning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi muhim tarbiyaviy g‘oyani ham o‘zida mujassamlashtiradi. Unga ko‘ra, haqiqiy kamolot faqat shaxsiy manfaatlar yoki individual muvaffaqiyatlar bilan emas, balki ota-ona roziligini qozonish, keksalarni e’zozlash va milliy an’analarga sodiq qolish bilan ham belgilanadi. Demak, o‘zbek tilida yoshlik konseptini ifodalovchi frazeologik birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yosh avlod obrazi mustaqil hodisa sifatida emas, balki kattalar bilan o‘zaro hurmat, mas’uliyat va ma’naviy vorislik munosabatlari tizimida talqin etiladi. Bu esa o‘zbek xalqining kollektivlikka asoslangan milliy tafakkuri hamda avlodlar davomiyligiga tayanuvchi madaniy qadriyatlarining til vositasidagi ifodasidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilidagi “yoshlik” konseptiga asoslangan frazeologizmlar shunchaki til birliklari emas, balki millatning yosh avlodga bo‘lgan talablari, umidlari va tarbiya kodeksidir. Bu iboralar yoshlikni kuch-shijoat va g‘ayrat maskani deb ulug‘lash bilan birga, uni ilm o‘rganish, kamtarlik va kattalarga hurmat ko‘rsatish orqali komillikka yetaklovchi mas’uliyatli davr o‘laroq baholaydi. Shuning uchun ham ushbu frazeologizmlarni o‘rganish o‘zbek xalqining milliy o‘zligini va madaniy kodlarini tushinishda muhim kalit bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, yoshlik bilan bog‘liq ushbu frazeologik birliklar o‘zbek xalqining yosh avlod haqidagi ijtimoiy-madaniy qarashlarini yaqqol namoyon etadi. Ularda yoshlar kuch-quvvat manbai, kelajakka ishonch bilan qaraydigan, tashabbuskor va serg‘ayrat insonlar sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, bu iboralar yoshlarning mavjud salohiyatidan oqilona foydalanishi, o‘z shijoatini ezgu maqsadlar sari yo‘naltirishi zarurligi haqidagi xalqona pand-nasihatlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, frazeologik birliklarda ifodalangan yoshlik konsepti o‘zbek xalqining tarbiyaviy ideallari, axloqiy me’yorlari va milliy dunyoqarashini o‘rganishda muhim lingvokulturologik manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
2. Geeraerts D., Cuyckens H. The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2007.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 610 b.
4. G‘ulomov A.N. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Jo‘rayeva B. O‘zbek tilida maqol va iboralar: strukturaviy-semantik tahlil. – Samarqand: Ilm ziyo, 2012.
6. Karimov S. Til ta’limi va me’yor: frazeologik birliklar tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
7. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996.
8. Mamatov A. O‘zbek tilidagi frazeologizmlarning uslubiy va nutqiy xususiyatlari. – Buxoro: BDU, 2014.